



ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA NEYROLINGVISTIKA SOHASINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Axmedova Hilola Rasuljon qizi

NamDU lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo'lmish neyrolingvistika sohasi ,uning paydo bo'lishi, olimlar tomonidan o'rganilishi va tilshunoslik sohasidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Neyrolingvistika , nevrologiya, neyron, Aleksandr Luriya, afaziologiya, o'ng va chap miya, lingvistik nuqsonlar .

Аннотация: В данной статье обсуждается одна из новых областей лингвистики – область нейролингвистики, ее возникновение, изучение и левое полушарие мозга, лингвистические учеными, а также ее значение в области лингвистики.

Ключевые слова: Нейролингвистика, неврология, нейрон, Александр Лурия, афазиология, правое дефекты.

Abstract: In this article, one of the new fields of linguistics, the field of neurolinguistics, its emergence, its study by scientists, and its importance in the field of linguistics are discussed.

Key words: Neurolinguistics, neurology, neuron, Alexander Luria, aphasiology, right and left brain, linguistic defects.

Bugungi kunga kelib zamonaviy tilshunosligimizga bir qancha yangi sohalar kirib keldi.Neyrolingvistika sohasini ham yangi sohalar qatoriga kiritishimiz mumkin.Neyrolingvistika nevrologiya usullari yordamida tilning tuzilishini o'rganadi. Til va miya qanday bog'lanadi? Til ma'lumotlarni miyada qanday va qayerda saqlaydi,qachon va qanday qayta ishlanadi, kabi savollarga neyrolingvistika orqali javob topishimiz mumkin bo'ladi. Neyrolingvistika yordamida biz miya faoliyati va uning nutq, fikrlash, hissiy idrok va xotiradagi xususiyatlarini o'rganishimiz mumkin.Neyrolingvistika psixolingvistikaga eng yaqin bo'lgan fanlar aro fan sifatida o'zini namoyon qiladi. Neyrolingvistika o'zi nima? Neyrolingvistika (lot neuron -nerv va lingua - til) - psixologiya fani sohasi, afaziyaning psixolingvistik jihatlarini o'rganadi. Neyrolingvistika ayni paytda sohasi jada rivojlanish bosqichida turibdi.Chunki bu yo'nalish tilning miya bilan bog'liqligi , uarning ayro holdagi tuzilishi, nutqiy faoliyat, nutqiy buzilishlar,gapirish va nutqni eshitish, o'zga tillarni o'rganish jarayonida miya va tilda kechadigan mexanizmlar kabi hodisalarini ham o'rganadi.Bu hodisalarning barchasi bugungi kunimiz uchun juda muhimdir.

Mening fikrimcha, bugungi kunimizda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi va nevrologiya hamda tilshunoslikning ilmiy manfaatlari yaqinlashishi yangi soha bo'lmish neyrolingvistikaning shakllanishiga turtki bo'lди. Neyrolingvistikaning fan sifatida vujudga kelishi, bir tomondan, neyropsixologiyaning, ikkinchi tomondan, lingvistika va psixolingvistikaning rivojlanishi bilan bog'langandir. Hozirgi zamon neyropsixologiyasida neyrolingvistika so'zlashga miyaning sistemali funksiyasi sifatida, afaziyaga esa sistemaning buzilishi sifatida qaraydi. Neyrolingvistikaning rivojlanishi psixolog A.R. Luriya (1902-1977) va uning shogirdlarining ilmiy ishlari bilan bog'liqdir.



Demak neyrolingvistika – neyron va lingvistika so‘zlarining o‘zaro birikuvidan hosil bo‘lgan va inson miyasidagi nerv hujayralarining ya’ni neyronlarning tilda nutqdagi so‘zlarni hosil qilishdagi vazifasini o‘rganadi.Neyrolingvistika nutqning shakllanishi va tushunilishini ta’minlovchi bosh miya mexanizmini o‘rganuvchi fandir.Neyrolingvistikating paydo bolishi fundamental kashfiyotlardan sanaladi va bu atamaning kelib chiqishi 1940- yillarning oxiri va 50- yillarda Edit Krouell Trager, Anri Xeker va Aleksandr Luriyaga tegishli. Luriyaning Neyrolinvistikaga muammolarimnomli kitobi ushbu sohadagi birlinchi kitobdir. Garri Uitaker 1970-yilda AQShda neyrolingvistikani ommalashtirib, 1974-yilda Brain and Languagejurnaliga asos soldi. Neyrolingvistikani fundamental kashfiyot deb atashimizga asos bunda bosh miya po’stlog’ida psixik jarayonlarning lokolizatsiyasi (to’xtab qolishi) va inson miyasining funksional assismetriyasi bog’liqligi turadi. Fanning vujudga kelishida A.R. Luriya, Karl Vernikke, Pol Brokko va Teador Mayner kabi olimlarning xizmati kattadir.

Neyrolingvistika biologiya, san’at, psixologiya, fiziologiya va meditsina fanlari bilan chambarchas bog’liq bo’lib unung o‘rganish ob’ekti miyaning nutqiy va fikriy faoliyati, miyaning xotira va hissiyotlar mexanizmi hisoblanadi.Uning maqsadi bemorning nutq uslubini (intervyu, grafik, hikoya, o’qish, yozish va boshqalar) kuzatish va undan foydalanishni nazorat qilishdir. Neyrolingvistik uchun ikki yoki undan ortiq tilni o‘rganishda miyasi shikastlangan odamlarning nutqi va xatti harakatlarini kuzatish juda muhim masala.

Neyrolingvistika psixolingvistika sohasi bilan chambarchas bog’liq bo’lib, u eksperimental psixologiyaning an’anaviy usullarini qo’llash orqali tilning kognitiv mexanizmlarini yoritishga intiladi. Bugungi kunda psixolingvistik va neyrolingvistik nazariyalar ko’pincha bir-biriga bog’liq va bu ikki soha o’rtasida juda ko’p hamkorlik mavjud. Biz neyrolingvistik tadqiqotlar yordamida inson miyasini va uning ishlash jarayonini aniqroq o‘rganishimiz mumkin.Chunki labaratoriya tajribasi tajriba davomida miyaning qaysi qismi ishtirok etishini ko’rsatadi. Neyrolingvistik tadqiqotlarning qiziqishi tilning miyadagi nutq mexanizmlariga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan.Inson nutqini ishlab chiqarish jarayonida miyada bir nechta zonalar ishtirok etadi. Bu zonalarning ba’zilari asosiy funksiyalarni bajaradi.Boshqalari esa yordamchi funksiyalarni bajaradi. Bugungi tadqiqotlar natijasida muloqot qilish qobiliyatimiz uchun mas’ul bo’lgan zonalar aniqlangan bo’lishiga qaramay, ular har kimda har xil rivojlangan. Buning yorqin misoli sifatida kar-soqov insonning miyasini olishimiz mumkin. Bunday insonlarda miyaning nutqni shakllantirish va idrok etish uchun mas’ul bo’lishi kerak bo’lgan qismi o‘z qibiliyatini yo’qotgan va uning o’rnida periferik ko’rish xususiyati juda yaxshi rivojlangan.

Insonda ikkita miya bor, bu miya va miyachadir. Miyacha- ta’na muvozanatini boshqaradi (u ensa chuqurchasida joylashgan bo’ladi). Miyani 2ga: o’ng va chap yarimshari miyaga ajratgan holda o‘rganamiz.Miya neyron (hujayra)lardan tashkil topgan bo’lib, usti akson(oq tolacha)lar bilan qoplangan. Insonning muloqot jarayonini miya boshqaradi. Neyrolingvistika fanining muammolari doimiy va o’zgarishda bo’lib, uning mazmuni, qoidalari, paradigmasi aniq va ravshan emas. Shunga qaramay fanning tadqiqot muammolari doirasini keng.1861- yilda fransuz anatomi P.Brokko tadqiqotida peshona chap egri yarimshari shikastlanishini o‘rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadi, miyaning bu qismi zararlanganda inson gapirish qobiliyatini yo’qotadi, ammo boshqaning nutqini to’liq tushunadi. 1874-yilda nemis psixiatri K.Verniki miyaning chakka egri yarimshari shikastlanishini o‘rganadi va bunda inson gapira olishi, ammo boshqaning nutqini tushuna olmasligini aniqlaydi. Miyaning



vazifaviy assimetriyasi: chap yarimshar miya mantiqiy ratsional tafakkur qilish vazifasini bajaradi; o'ng yarimshar miya obrazli, emotsiyonal tafakkur qilish vazifasini bajaradi. Miyaning vazifaviy assimetriyasiga uzoq davrlar chap yarimsharlar asosiy deb qaralgan. Zamonaviy bilimlar shuni ko'rsatayaptiki insonlarda nutq zonasini turlichita, u yoki bu yarimsharda joylashishi mumkin. Murakkab abstrakt mavzular chap yarimsharda faol bo'ladi. Nutqning qabul qilinishi: birinchi so'zdan boshlab ikki yarimshar ham ishlay boshlaydi, chap yarimshar til birliklarini qabul qiladi, o'ng yarimshar tasvir butunligi va obrazlarni chizishni qabul qiladi. So'ngida yarimsharlarning ikkisi ham ma'lumotni birlashtiradi va muqobil voqelikka kiradi.

O'zbekistonda neyrolingvistika sohasida monografik ishlar amalga oshirilmagan. Ta'linda neyrolingvistik dasturlash elementlarini qo'llash, //// sohalarida ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Xulosa qilib shuni aytib o'tishimiz mumkinki, neyrolingvistika psixologiya, tilshunoslik va nevrologiya kabi sohalarning mushtarakligi asosida tadqiq etiladigan soha sanaladi. Neyrolingvistika bo'yicha dastlabki izlanishlar miyaning turli sohalaridagi jarohatlar natijasida yuzaga keluvchi nutqiy buzilish (afaziya) larga oid bo'lib, ularni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida insonning ruhiy holati, asab tizimidagi o'zgarishlar izchil kuzatilgan. Aytishimiz mumkinki, neyrolingvistika, bir tomonidan, psixologiya taraqqiyoti bilan izchil bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomonidan, nevrologiya va amaliy tilshunoslik bilan aloqadordir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Goziyev E.G Umumiy psixologiya. Darslik. T.: 2010
2. Ibodullayev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik. 2-nashri. T.: 2009.
3. Ibodullayev Z.R. Asab kasalliklari. Darslik. T.: 2014
4. Ibodullayev Z.R. Asab va ruhiyat. Ilmiy-ommabop risola. 3-nashri. - T.: 2018y.
5. Karimova V.M. Psixologiya. T. 2003
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/neyrolingvistik-dasturlashning-ayrim-psixologik-jihatlari>
7. <https://www.livelib.ru/book/1000824883-osnovnye-nejropsihologii-aleksandr-luriya>
8. <https://www.livelib.ru/book/1000218869-yazyk-i-soznanie-a-r-luriya>
9. <https://www.livelib.ru/book/1000032553-lektsii-po-obschej-psihologii-a-r-luriya>
10. <https://www.livelib.ru/book/1000249974-osnovnye-problemy-nejrolingvistiki-a-r-luriya>
11. Saidova, Mukhabbat (2019) "MAN, LANGUAGE AND CULTURE," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 4 , Article 40. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss4/40>
12. Qoziyev U., Nabijonova M. Bolalar nutqining ayrim psixolingvistik xususiyatlari //World scientific research journal. – 2023. – T. 15. – №. 1. – C. 174-177.